



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

OKKAZIONALIZMLARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Ibragimov Xayrulla Hamdamovich

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali, dotsent (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada okkazionalizmlarning lingvistik tabiati, struktur-semantik xususiyatlari hamda ularning til va nutq tizimidagi o'rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Okkazionalizm tushunchasining shakllanish tarixi, rus va o'zbek tilshunosligidagi tadqiq etilish bosqichlari yoritilib, bu haqida olimlarning qarashlari tahlil qilinadi. Shuningdek, okkazional birliklarning individual muallif nutqiga xosligi, ekspressiv-emotsional ta'siri, kontekstual ma'no hosil qilish xususiyatlari va lingvopoetik funksiyalari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: okkazionalizm, okkazional birlik, so'z yasalishi, lingvopoetika, neologizm, nutqiy ijodkorlik, struktur-semantik xususiyat, ekspressivlik, kontekstual ma'no, individual uslub, badiiy matn, til me'yori, leksik yangilanish, okkazional birikma.

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ОККАСИОНАЛИЗМОВ

Ибрагимов Хайрулла Хамдамович

Джизакский филиал Национального университета Узбекистана, доцент (PhD)

Аннотация

В данной статье с научной и теоретической точки зрения анализируется лингвистическая природа оккасионализмов, их структурные и семантические особенности, а также их место в языковой и речевой системе. Освещена история формирования понятия оккасионализма, этапы его изучения в русской и узбекской лингвистике, а также проанализированы взгляды ученых на этот вопрос. Также раскрыта специфика оккасионализма к индивидуальной авторской речи, его выразительное и эмоциональное воздействие, особенности контекстуального смыслообразования и лингвопоэтические функции.

Ключевые слова: оккасионализм, оккасионализм, словообразование, лингвопоэтика, неологизм, речевое творчество, структурные и семантические особенности, выразительность, контекстуальное значение, индивидуальный стиль, художественный текст, языковая норма, лексическое обновление, оккасионализм.

LINGUISTIC FEATURES OF OCCASIONALISMS

Ibragimov Xayrulla Hamdamovich

Jizzakh Branch of the National University of Uzbekistan, Associate Professor (PhD)

Abstract

This article analyzes the linguistic nature of occasionalisms, their structural and semantic features, and their place in the language and speech system from a scientific and theoretical perspective. The history of the formation of the concept of occasionalism, the stages of its study in Russian and Uzbek linguistics are highlighted, and the views of scientists on this issue are analyzed. Also, the specificity of occasional units to individual authorial speech, expressive and emotional impact, features of contextual meaning formation, and linguopoetic functions are revealed.

Keywords: occasionalism, occasional unit, word formation, linguopoetics, neologism, speech creativity, structural and semantic features, expressiveness, contextual meaning, individual style, artistic text, language norm, lexical renewal, occasional combination.

So'z yasalishi, leksik yangilanish va nutqiy ijodkorlik masalalarini o'rganish tilshunoslikda doimo alohida ahamiyat kasb etib kelgan. Ushbu muammolar orasida okkazional birliklar masalasi o'zining nazariy-metodologik murakkabligi va amaliy ahamiyati jihatidan alohida o'rin tutadi. Okkazionalizmlar bir tomondan tilning ichki imkoniyatlarini to'liq namoyon qiladigan vosita sifatida, ikkinchi tomondan esa so'z san'atkorlarining ijodiy mahoratini belgilovchi muhim lingvopoetik hodisa sifatida talqin etiladi.

Okkazionalizm lotincha "occasionalis" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "tasodifiy", "bir martalik" ma'nolarini ifodalaydi. Ushbu birlikning tilshunoslik faniga kirib kelishi rus tilshunosligida XX asrning ikkinchi yarmi bilan bog'liq. O'tgan asrning 50-yillarida N.I. Feldman ilmiy muomalaga okkazional so'z

tushunchasini birinchi marta terminologik aniqlik bilan kiritdi va uni quyidagicha ta'rifladi: "Okkazional so'zlar so'z yasalishining mahsuldor bo'lmagan tiplari asosida vujudga keladigan va ma'lum matnga xos ma'no ifodasiga ega bo'lgan lisoniy birliklar" [12; 66-b.]. Ushbu ta'rif okkazionalizm hodisasini nafaqat so'z yasalish nuqtayi nazaridan, balki matn lingvistikasi va nutq faoliyati jihatidan ham belgilashga asos yaratdi. Feldmanning ushbu qarashlari keyingi o'nlab yillar davomida tilshunoslikda turli metodologik yo'nalishlar doirasida muhokama etildi va takomillashtirildi.

Okkazionalizm muammosini atroflicha o'rganigan dastlabki tadqiqotchilardan biri E. Xanpira hisoblanadi. U 1956-yilda Mayakovskiy ijodida okkazional so'z yasalishiga bag'ishlangan nomzodlik dissertatsiyasida [13; 16-b.] okkazionalizmlarni leksik tizimdan tashqarida joylashgan va muayyan kontekstga bog'liq holda mazmun kasb etuvchi birliklar sifatida tavsiflab berdi. Rus tilshunosligida okkazionalizmlar nazariyasini yanada rivojlantirish borasida V.V. Lopatin va A.G. Likovlarning hissasi beqiyos. V.V. Lopatin okkazionalizmlar muammosiga keng yondashib, ularni "til an'analarida mavjud bo'lmagan har qanday yangi shakllangan so'zlar" [5; 150–152-b.] deb ta'riflaydi. Mazkur qarash tilning sinxron holatida yuzaga keladigan barcha yangilanishlarni hisobga olishi jihatidan metodologik jihatdan qimmatlidir.

O'tgan asrning 70-yillarida okkazionalizm muammosi rus tilshunosligida yanada jadalroq o'rganila boshlandi. Aynan shu davrda tilshunoslar okkazionalizmlarning yuzaga kelish sabablari haqida ikki xil pozitsiyaga ajralib chiqdi. Birinchi pozitsiya tarafdorlari, xususan E.A. Zemskaya, okkazionalizmlarning shakllanishida til normalarining qasddan buzilishi hal qiluvchi omil ekanligini asoslab berdi. Tilshunosning fikricha, okkazionalizmlarning yuzaga kelishi asosida "nutqning emotsional-ekspressivligini ta'minlash maqsadida til normalarining buzilishi" [4; 228-b.] yotadi. V.N. Xoxlacheva esa ushbu belgilanishni yanada muhim omil sifatida ta'kidlab, "okkazionalizmlarning yuzaga kelishida noqonuniylik mavjud" [15; 298-b.] degan xulosaga keldi. Bu yerda "noqonuniylik" tushunchasini "me'yordan chetga chiqish" ma'nosida talqin qilish o'rinlidir. Shunday qilib, 70-yillar tilshunosligida okkazionalizmlarning leksik me'yor bilan munosabati masalasi muhim metodologik muammo sifatida o'rtaga tashlandi.

80-yillarda ushbu muammoning tadqiqi yanada kengaydi. S.N. Soskina, R.Yu. Namitokova, V.I. Bolotov, T.B. Vorobyova, Y.A. Jigareva, A.G. Novoselova [9] kabi bir qator tadqiqotchilar o'zlarining dissertatsion ishlarida okkazionalizmlarning turli aspektlarini Mayakovskiy ijodi, Chexov asarlari, sovet publitsistikasi kabilar misolida atroflicha yoritib berdilar. Ushbu tadqiqotlar majmuasi okkazionalizmlar nazariyasini sezilarli darajada boyitdi hamda bu fenomenning strukturaviy, semantik va funksional jihatlarini har tomonlama ochib berishga zamin hozirladi.

O'zbek tilshunosligida ham aynan shu davrda okkazionalizmlar muammosi ilmiy tadqiqot doirasiga kira boshladi. N. Shukurov, A. Madrahimov, A. Ahmedov, S. To'rabekova, Q. Samadov singari olimlar [16] 50-yillarda okkazionalizmlarning ayrim xususiyatlarini ko'rib chiqqan bo'lsalar, 70–80-yillarda A. G'ulomov, H. Rustamov, B. Choriyev, M. Mirtojdiyev [3] va boshqalarning ishlarida ushbu masalaga tobora ko'proq e'tibor qaratildi.

O'zbek tilshunosligida okkazional so'z yasalishini birinchi marta monografik darajada atroflicha tadqiq etgan olim S. Toshaliyeva hisoblanadi. Uning 1998-yilda himoya qilingan nomzodlik dissertatsiyasida okkazionalizmlarning yasalish usullari, tiplari va badiiy-estetik vazifalari keng ko'lamda tahlilga tortildi. Tadqiqotchi okkazional birliklarning umumiy tabiatini belgilashda quyidagi muhim jihatni ta'kidlaydi: "Favqulodda yaratiluvchi bu so'zlar o'quvchida g'ayritabiiylik, qandaydir g'alatilik hissini uyg'otadi, ammo so'z qatnashgan matnning mazmuni, unda aytilmoqchi bo'lgan fikr ushbu g'ayritabiiylikning lozimligini, nutqiy ehtiyoj tufayli ekanligini tasdiqlab turadi. Bu kabi yasalmalar mohiyatan tilning obyektiv yasalish qoliplariga mos tushsa-da, qayta-qayta, takror qo'llash ehtiyoji bo'lmagani uchun o'zi paydo bo'lgan matnninggina mulki bo'lib qolaveradi" [10; 52-b.]. Toshaliyevaning ushbu ta'rifi okkazionalizmlarning ikki asosiy belgisini — matnga xoslik va bir martalikni aniq belgilab beradi.

O'zbek tilshunosligida okkazionalizmlar muammosini yanada chuqurroq o'rganishga A. Mamatovning ilmiy tadqiqotlari ham muhim hissa qo'shgan. Uning hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida leksik va frazeologik me'yor muammolariga bag'ishlangan doktorlik dissertatsiyasida "nonormal, noqonuniy bo'lgan okkazional so'z va iboralar" [8; 203-b.] masalasi alohida o'rganildi. Olim lingvistik me'yor muammosini hal etishga asosiy e'tiborini qaratarkan, okkazional so'z va iboralarning adabiy me'yorga munosabatini puxta tahlil qilib, ularni me'yor buzilish jihatiga ega lisoniy hodisalar ekanligini isbotlab berdi.

E. Begmatov va A. Mamatovning “Adabiy norma nazariyasi” nomli asarida esa bu masala yanada keng ko‘lamda yoritilgan. “O‘zbek tilining lug‘aviy normalari, so‘zlarning lug‘aviy me‘yorga aylanishida muhim rol o‘ynovchi omillar, bu jarayonda yangi so‘zlar va okkazional leksika orasidagi munosabat, okkazional leksika individual nutq me‘yori bo‘lib qolishining sabablari” [2; 58–59-b.] kabilar muhokama etiladi.

Okkazionalizm tushunchasining shakllanish va taraqqiyot tarixi bir necha bosqichni qamrab oladi:

- terminning ilmiy muomalaga kiritilishi va dastlabki ta‘riflarining yuzaga kelishi;
- okkazionalizmning turli aspektlarda tadqiq etilishi;
- turli nazariy-metodologik yondashuvlarning shakllanishi;
- o‘zbek tilshunosligida okkazionalizmning tilshunoslikka kirib kelishi.

Okkazional birliklarning struktur-semantik xususiyatlarini tahlil qilish ularning tildan va boshqa leksik hodisalardan farqli jihatlarini yanada aniqroq belgilash imkonini beradi. M.Sh. Akbarova ta‘kidlaganidek, okkazionalizmlar tadqiqi borasida “okkazional birikmalar, okkazionalizm hamda oksyumoron hodisalarini chetlab o‘tib bo‘lmaydi” [1; 30-b.]. Ushbu fikr okkazional birliklarni alohida tizim sifatida emas, balki yaqin lisoniy hodisalar bilan o‘zaro munosabatda o‘rganish zarurligi haqidagi metodologik zaruratni ifodalaydi.

Struktur jihatdan okkazionalizmlar til tizimida mavjud bo‘lgan so‘z yasaliş modellari asosida, ammo ushbu modellarning nostandart yoki cheklangan qo‘llanilishi natijasida yuzaga keladi. E. Xanpira ushbu masalaga doir muhim metodologik kuzatishni amalga oshirib, oddiy okkazionalizmlar bilan badiiy okkazionalizmlarni ajratib ko‘rishni taklif etdi. Olimning fikricha, “oddiy okkazionalizmlarni badiiy okkazionalizmlardan farqlash lozim” [14; 253-b.]: birinchi toifaga kundalik nutqda paydo bo‘ladigan, nominativ zarurat tufayli vujudga keladigan yangi so‘zlar kirsas, ikkinchi toifaga yozuvchi va shoirlarning ijodiy mahorati mahsuli bo‘lgan, muayyan badiiy-estetik maqsadni ko‘zlaydigan birliklar mansub hisoblanadi. Ushbu farqlash tasnif jihatdan muhim bo‘lishiga qaramay, amalda ikki toifa o‘rtasidagi chegarani belgilash ko‘pincha murakkab metodologik masalaga aylanadi.

Semantik jihatdan okkazionalizmlarning asosiy belgisi ularning kontekstual ma‘no xususiyatida ko‘rinadi. Okkazional birliklar tildagi mavjud so‘z va morfemalar asosida yangi ma‘no munosabatlarini hosil qiladi. Shu o‘rinda O. To‘xtasinova tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot alohida ahamiyat kasb etadi. U o‘zbek tilshunosligida leksik okkazionalizmlarni birinchi marta atroflicha tahlil qilib, ularning badiiy-estetik xususiyatlarini ochib berdi: “Okkazionalizmlar o‘quvchi yoki tinglovchilarning hissiyotiga ta‘sir etib, ularda yangilanish, ta‘sirchanlik yoki qo‘zg‘alishni vujudga keltirar ekan, bu estetik vazifaning namoyon bo‘lishidir” [11; 102-b.].

Ushbu ta‘rifda okkazionalizmlarning ta‘sir mexanizmi — ya‘ni o‘quvchi yoki tinglovchi ruhiyatiga kutilmagan ta‘sir ko‘rsatishi — uning struktur-semantik tabiatining muqarrar natijasi ekanligi ko‘rinadi. Bu ta‘sir, o‘z navbatida, okkazionalizmlarning semantik tuzilishidagi nomuvofiqlik yoki nomutanosiblik orqali amalga oshiriladi. Tinglovchi yoki o‘quvchi ma‘lum bir mantiqiy tafakkur jarayonini boshdan kechiradi va okkazional birlik ana shu jarayonning yangi, noodatiy semantik qirrasini ko‘rsatadi.

Okkazionalizmlarning struktur-semantik xususiyatlarini aniqroq belgilash uchun A.G. Likovning tasnifiga murojaat etish maqsadga muvofiqdir. U okkazionalizmlarning asosiy belgilarini quyidagicha tartibga keltiradi.

Birinchidan, individual bog‘liqlik — okkazional so‘z ma‘lum bir muallif yoki nutqiy vaziyat bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u aynan shu kontekst uchun yaratilgan va shu kontekstdan tashqarida to‘liq amal qila olmaydi.

Ikkinchidan, ekspressivlik — okkazional birlikning semantik tuzilishidagi nomutanosiblik yoki kutilmagan birlashtirish bevosita ekspressiv ta‘sir hosil qiladi. Bu xususiyat okkazionalizmlarni nutqda ham estetik, ham kommunikativ maqsadda keng qo‘llash imkonini beradi.

Uchinchidan, funksional foydalanish xususiyati — okkazionalizmlar har doim ma‘lum bir kommunikativ yoki badiiy-estetik vazifani bajaradi va bu vazifaning tabiati ularning yaratilish maqsadini belgilaydi [6; 16-b.].

Okkazional birliklarning semantik tuzilishini tahlil qilishda yana bir muhim jihatga e‘tibor qaratish lozim. Ular, bir tomondan, til tizimida mavjud morfemalar va so‘z yasaliş qoliplaridan foydalansa, ikkinchi tomondan, ushbu qoliplarning noodatiy yoki cheklangan qo‘llanilishi tufayli yangicha ma‘no nisbatlarini vujudga keltiradi. Akbarova bu xususiyatni quyidagicha ifodalaydi: okkazional birliklarning “badiiy-estetik, ekspressiv-emotsional aktualashuv xususiyati” [1; 31-b.] ularni o‘zbek badiiy

matnining lingvopoetik tahlilida oʻta muhim obyektga aylantiradi. Aynan shu nuqtada okkazional birliklarning struktur-semantik tahlili lingvopoetik tadqiqot bilan uygʻunlikka erishadi.

Okkazionalizmlarning morfologik tuzilishi haqida soʻz yuritilganda shuni taʼkidlash zarurki, ular aksariyat hollarda tilning mavjud morfologik qoliplari asosida yuzaga keladi, ammo soʻz yasashning kam mahsuldor yoki nostandart usullarini faollashtiradi. Aynan shu belgi ularni tildagi anʼanaviy soʻz yasash mahsulidan ajratib turuvchi asosiy struktur koʻrsatkich hisoblanadi. Boshqacha aytganda, okkazional birliklar soʻz yasalishi “qonunlari”ga zid emas, balki ushbu qonunlarning chekli yoki cheklanmagan imkoniyatlaridan kreativ foydalanish natijasidir. M. Mirtojdiyevning taʼbiricha, ular okkazional maʼno hosil qiluvchi birliklar sifatida til tizimida oʻziga xos oraliq maqomga ega — bu birliklar til tomonidan ishlab chiqilgan imkoniyatlarni badiiy va nutqiy ijodkorlik doirasida roʻyobga chiqaradi.

Okkazional birliklarning sintaktik xususiyatlari haqida ham alohida toʻxtalib oʻtish kerak. Yuzaga kelish yoʻliga qarab okkazionalizmlarning soʻz darajasida (leksik okkazionalizmlar) va birikma darajasida (okkazional birikmalar) farqlanishi tilshunoslikda qabul qilingan tasnif hisoblanadi. Leksik okkazionalizmlar yangi soʻz yaratish orqali yuzaga kelsa, okkazional birikmalar mavjud soʻzlarning noodatiy birlashtirilishi natijasida vujudga keladi. Soʻnggi toifaga mansub birliklar oʻzbek tilshunosligida baʼzan gʻayriodatiy birikmalar, noodatiy birikmalar kabi turli terminlar bilan ham ataladi, ammo ularning okkazional tabiatini aniq belgilash uchun ushbu toifalarni bir-biridan metodologik jihatdan ajratib koʻrishga ehtiyoj seziladi. Akbarova oʻz tadqiqotida okkazional birikmalarni alohida tahlil qilib, quyidagicha izohlaydi: gʻayriodatiy birikmalar “matn nuqtayi nazari bilan yaratilishi tabiiy, lekin ular faqatgina shu matnga va nutqqa xos boʻlib qolmasdan, tilga ham koʻchishi, takror qoʻllanish xususiyatlarini oʻzida namoyon etishi mumkin” [1; 30-b.]. Shunday qilib, okkazional birliklarning nazariy-metodologik tahlili bir necha muhim xulosalarni beradi. Okkazionalizm tushunchasi tilshunoslikda N.I. Feldmanning dastlabki taʼrifidan boshlab murakkab taraqqiyot yoʻlini bosib oʻtib, hozirga kelib oʻzining aniq nazariy maqomiga ega boʻlgan. Okkazional birliklarning struktur-semantik xususiyatlari ularning kontekstual maʼno tabiatini, individual xoslanganligini va ekspressiv-emotsional funksiyasini belgilaydi. Ushbu nazariy-metodologik asoslar oʻzbek tili badiiy okkazionalizmlarini lingvopoetik jihatdan tadqiq etishning ilmiy-metodologik zaminini tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Akbarova M.Sh. Badiiy matndagi gʻayriodatiy birikmalarling lingvopoetik xususiyatlari: Filol. fan. boʻyicha falsafa doktori (PhD) diss. — Toshkent, 2024. — B. 30.
2. Бегматов Э., Маматов А. Адабий норма назарияси. II қисм. — Т.: Наврўз, 1998. — Б. 58–59.
3. Gʻulomov A. Adabiy til normalari // Nutq madaniyatiga oid masalalar. — Т.: Oʻqituvchi, 1973
4. Земская Е.А. Современный русский язык. Словообразование. — М.: Просвещение, 1973. С. 228.
5. Лопатин В.В. Рождение слова // Неологизмы и окказиональное словообразование. — М.: Наука, 1973. — С. 150–152.
6. Лыков А.Г. Современная русская лексикология: русское окказиональное слово. М.: Наука, 1976.
7. Лыков А.Г. Окказиональные слова как лексическая единица речи // Филологические науки. — М., 1971. — № 5.
8. Маматов А.Э. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари: Филол. фанлари доктори ... дис. — Т., 1991. — Б. 203.
9. Соскина М.Н. Окказиональные образования научной фантастики: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. — Л., 1980
10. Тошалиева С. Ўзбек тилида окказионал сўз ясалиши: Филол. фанлари номзоди ... дис. — Т., 1998.
11. Тоʻxtasinova O. Oʻzbek tilida leksik okkazionalizmlar va ularning badiiy-estetik xususiyatlari: Filol. fanlari nomzodi ... diss. — Toshkent, 2007. — B. 102.
12. Фельдман Н.И. Окказиональные слова и лексикография // Вопросы языкознания. 1957. № 4. С. 66.
13. Ханпира Э. Окказиональное словообразование В.В. Маяковского (отыменные глаголы и причастия): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. — М., 1956. — С. 16.
14. Ханпира Э. Окказиональные элементы в современной речи // Стилистические исследования. — М.: Наука, 1972. — С. 253.
15. Хохлачева В.Н. Индивидуальное словообразование в русском литературном языке XIX века // Материалы и исследования по истории русского языка. — М.: АН СССР, 1972. — С. 298.
16. Shukurov N. Gʻ. Gʻulomning tildan foydalanish mahoratiga doir // Oʻzbek tili va adabiyoti masalalari. — Т.: ToshDU, 1959. — 4-son.